
Buvayda tuman hokimi Behzodjon Ibragimovning navbatdagi jismoniy va yuridik shaxslar vakillari bilan qabuli bo'lib o'tdi.

Buvayda tuman hokimi Behzodjon Ibragimov boshchiligidagi qabulda sektor rahbarlari, Prezident Xalq Qabulxonasi mudiri, hokim o'rinbosarlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirok etdilar

Qabulda moddiy yordam, kredit, davolanish uchun moddiy yordam, bolalar nafaqasini olish, uy-joy, va boshqa masalalar bo'yicha jami 26 nafar fuqarolarning murojaatlari qabul qilindi. Shulardan 7 tasi ijobiy hal etildi, 8 tasiga huquqiy ma'lumot berish va tushuntirish orqali hal qilindi va 11 nafar fuqarolarning murojaatlari ijro uchun tegishli korxonalar va tashkilotlarga ijroga yo'naltirildi.

2024-05-01 17:44:48